



IMPROVING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF PRIMARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND TRAINING OF PEDAGOGICAL PERSONNEL

Furqat Isokjanov

independent researcher

Namangan State Pedagogical Institute

Uzbekistan, Namangan

ABOUT ARTICLE

Key words: educational process, constructive management, National Personnel Training Program, electronic textbooks, interactive teaching methods, multimedia programs, aesthetic education, national values, methods, methodologies, technologies, creative thinking, competence.

Received: 09.03.25

Accepted: 11.04.25

Published: 13.04.25

Abstract: During this period of independence, the issues of updating national pedagogical traditions and introducing modern pedagogical technologies took a central place. From a historical point of view, pedagogical traditions were reworked and combined with new educational methods. It is highlighted that it is the most important link in the reforms within the framework of the national personnel training program and plays an important role in creating a solid knowledge foundation for the country's younger generation.

BOSHLANG'ICH TA'LIM MUASSASALARINING MODDIY-TEXNIKA BAZASINI YAXSHILASH VA PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH

Furqat Isoqjanov

mustaqil tadqiqotchi

Namangan davlat pedagogika instituti

O'zbekiston, Namangan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, konstruktiv boshqarish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, elektron darsliklar, interfaol dars usullari, multimedia dasturlari, estetik tarbiya, milliy qadriyatlar, uslublar, metodikalar, texnologiyalar, ijodiy tafakkur, kompetentsiya.

Annotatsiya: Ushbu mustaqillik davrida milliy pedagogik an'analarni yangilash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari markaziy o'rinni egalladi. Tarixiy nuqtai nazardan, pedagogik an'analarni qayta ishlanib, yangi ta'lim metodlari bilan uyg'unlashtirildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasidagi islohotlarning eng muhim bo'g'ini bo'lib, mamlakatning yosh avlodi uchun mustahkam bilim asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi yoritib berilgan.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ УЧРЕЖДЕНИЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ПОДГОТОВКА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

Фуркат Исоқжонов

независимый исследователь

Наманганский государственный педагогический институт

Узбекистан, Наманган

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: образовательный процесс, конструктивное управление, Национальная программа подготовки кадров, электронные учебники, интерактивные методы обучения, мультимедийные программы, эстетическое воспитание, национальные ценности, методы, методики, технологии, творческое мышление, компетентность.

Аннотация: В период независимости на первый план вышли вопросы обновления национальных педагогических традиций и внедрения современных педагогических технологий. С исторической точки зрения педагогические традиции были переработаны и адаптированы к новым методам обучения. Подчеркивается, что оно является важнейшим звеном реформ в рамках национальной программы подготовки кадров и играет значительную роль в создании прочной базы знаний для молодого поколения страны.

Kirish. O‘zbekiston hududi qadimgi davrlardan buyon ilm-fan va ta’lim markazi bo‘lib kelgan. Samarqand va Buxoro singari shaharlar tarixiy madrasalarning markazlari bo‘lib, ilmiy va madaniy meros shakllangan. Mazkur tarixiy tajriba hozirgi ta’lim tizimidagi yangilanishlarga va ta’lim sifatini oshirishga ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar tarbiyasida va ta’lim tizimida qadimiy xalq ta’limoti, ma’rifatparvarlik qadriyatlari asos sifatida saqlanib qolmoqda. Zamonaviy maktablarda xalq ta’limoti merosini aks ettirish hamda o‘quvchilarga milliy tarix va madaniyatni yetkazish, tarixiy kontekstni boyitishi mumkin.

Sovet davrida ta’lim tizimi qat’iy markazlashtirilgan va yirik ilm-fan merosi bilan boyitilgan. Shu davrdan qolgan arxitektura, o‘quv dasturlari va pedagogik metodlar hozirgi kunda ham zamin bo‘lib xizmat qilmoqda. Sovet davrida qurilgan maktab binolari va ta’lim muassasalari O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda modernizatsiyaga muhtoj bo‘lib qoldi. Tarixiy yodgorlik sifatida ko‘riladigan binalar va inshootlarni yangilash jarayoni tarixiy merosni saqlash va zamonaviy talablar orasidagi muvozanatni topishni talab etadi.

Raqamli ta’lim, interaktiv taxtalar, laboratoriyalar kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish O‘zbekiston tarixidagi ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlarini aks ettiradi va davlatning ilm-fan rivojiga bo‘lgan e’tiborining davomidir. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimidagi muvaffaqiyatli o‘zgarishlar doim davlat va jamiyat hamkorligini talab qilgan. Davlat, mahalliy hokimiyat va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik O‘zbekiston tarixidagi ilmiy va madaniy rivojlanish tajribasidan ilhomlanadi. Bu hamkorlik O‘zbekistonning qadimiy ilmiy

markazlarida ham amalga oshirilgan. Yaxshi malakaga ega o'qituvchilarni tayyorlash va ularni rag'batlantirishga doir chora-tadbirlar o'tmishda mavjud bo'lgan ta'lim tizimi yondashuvlaridan keyingi bosqich sifatida ko'riladi. Tarixiy nuqtai nazardan, bu holat O'zbekistonning tarixiy davrlarida ham mujassam bo'lgan "ustoz-cho'pon" an'analariga parallel keladi.

Asosiy qism.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Boshlang'ich ta'lim sifati bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Shu bois, maktablarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va malakali pedagog kadrlarni tayyorlash ustuvor yo'nalishlar bo'lib, ularni amalga oshirish ta'lim tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Maktab binolari qulay, xavfsiz va zamonaviy talablariga mos holda ta'minlanishi kerak. Shuningdek, darslik xonalaridagi o'rindiqlar, stol-sellafonlar va boshqa mebellar ergonomik va bolalarga qulay bo'lishi lozim.

Zamonaviy dars texnologiyalari – interaktiv doskalar, kompyuterlar, loyihorlar, audio-video tizimlar va laboratoriyalar – ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish, onlayn platformalar va elektron darsliklarni joriy etish talabalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va interfaol qiladi. Zamonaviy kutubxonalar va boy o'quv materiallari, shuningdek, internetga ulanish imkoniyati ta'lim sifati va bolalarning mustaqil o'qish odatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Pedagoglar uchun muntazam treninglar, seminarlar, vebinarlar va kurslar tashkil etish ularning zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar bilan tanishishlariga yordam beradi. Bu jarayon orqali ularning didaktik uslublari yangilanib, darslarni interaktiv va samarali o'tkazishga erishiladi.

Universitetlar va pedagogika markazlari zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi lozim. Bu dasturlar nazariy bilimlar bilan birga amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, real sinf vaziyatlarida qo'llanishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. O'qituvchilararo amaliy tajriba almashinuvi, hamkorlik sharoitlarida loyihalarni amalga oshirish hamda xalqaro va mahalliy ta'lim loyihalarida ishtirok etish orqali ularning didaktik mahorati va professional rivojlanishi ta'minlanadi.

Boshlang'ich ta'lim muassasalarining sifatini oshirishda ikkita muhim yo'nalishga e'tibor qaratish zarur: moddiy-texnika bazasini yaxshilash va pedagog kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Sinfxonalar va o'quv maydonchalari uchun interaktiv taxtalar, kompyuterlar, audio va video vositalari, laboratoriya asbob-uskunolari kabi zamonaviy texnika bilan ta'minlash orqali dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Maktab binolarining ta'mirlanganligi, sinfxonalar, kutubxonalar, sport zalari va o'quv xonalarning qulayligi ta'lim sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bino xavfsizligi, yo'llar, sanitariya va energiya tejamkor tizimlarga e'tibor berish lozim. Internetga ulanish, elektron kutubxonalar va onlayn ta'lim resurslarini

yaratish bilan ta'lim jarayonini raqamlashtirish. Bu o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash imkonini berib, ularni kelajak kasblariga tayyorlaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bilan birgalikda hayotga tatbiq etildi. Bu dastur mustaqillik yillarida ta'lim sohasini jahon andozalari darajasiga ko'tarish, milliy qadriyatlarga asoslangan demokratik va insonparvar ta'lim tizimini yaratish maqsadlariga yo'naltirildi. "1997 yildan 2009 yilgacha bo'lgan davrda «Kadrlar tayyorlash» milliy dasturi doirasida jami 2 trillion 368 mlrd. 730 mln. so'm mablag' sarflangan. 2004 yildan 2009 yilgacha bo'lgan davrda esa «Maktab ta'limini rivojlantirish» davlat umummilliy dasturi uchun taxminan 1,5 trillion so'm mablag' ajratilgan. Bu moliyaviy ko'rsatkichlar aksariyat davlat tashabbuslari va dasturlar uchun ajratilgan mablag' miqdorini ko'rsatadi"[1].

Ta'limni uzluksiz va izchil rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayoni milliy dasturning asosiy maqsadi sifatida belgilandi. Tarix nuqtai nazaridan, ushbu dastur mamlakatimizdagi ta'lim islohotlarining strategik konsepsiyasiga aylandi[3]. Tarix fani nuqtai nazaridan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatimizdagi ta'lim tizimidagi muhim tub burilishlarni anglatdi. Mazkur dastur milliy ta'lim modelini yaratish va uni joriy etish orqali tarixiy ildizlarga asoslangan zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishni ta'minladi. Shuningdek, ta'lim sohasida milliy va jahon andozalari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirdi. Dasturning asosiy vazifasi ta'lim va tarbiyani xalqimiz madaniyati, tarixi va an'analari bilan uyg'unlashtirish bo'ldi. Shuningdek, ta'lim jarayonida demokratik, insonparvarlik va zamonaviylik tamoyillarini joriy etishga alohida e'tibor qaratildi[5].

Boshlang'ich ta'lim Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasidagi islohotlarning eng muhim bo'g'ini bo'lib, mamlakatning yosh avlodi uchun mustahkam bilim asoslarini yaratishda muhim rol o'ynadi. Milliy dasturning boshlang'ich ta'limga qaratilgan ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat edi:

Davlat ta'lim standartlari (DTS)ni ishlab chiqish:

Boshlang'ich ta'lim uchun yangi Davlat ta'lim standartlari qabul qilinib, o'quv dasturlari va darsliklar zamonaviy talablarga moslashtirildi.

Pedagogik texnologiyalarni joriy etish:

Yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol dars usullari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayoniga keng joriy etildi.

Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash:

Boshlang'ich ta'limda iqtidorli yoshlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida maxsus maktablar va internatlar tashkil etildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'quv dasturlari va darsliklar qayta ko'rib chiqilib, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning monitoring tizimi yo'lga qo'yildi. Ushbu monitoring natijalari 2000-2009 yillar mobaynida o'quvchilarning bilim darajasi yilma-yil oshganligini ko'rsatdi. 1999-2009 yillar davomida O'zbekistonlik o'quvchilar turli xalqaro fan olimpiadalarida 100 ga yaqin medallarni qo'lga kiritdilar. Bu boshlang'ich ta'lim tizimining samaradorligini yana bir bor tasdiqladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida maktablarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash va ularni zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash masalasiga katta e'tibor qaratildi. Jumladan: 8501 ta maktabning binosi yangilanib, rekonstruksiya qilindi. 2006 yilga kelib, internet tarmog'iga ulangan maktablar soni 2000 tadan oshdi[2. – B. 11 – 12.].

Boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayonida: Elektron darsliklar va multimedia dasturlari ishlab chiqildi. O'quvchilar va o'qituvchilar uchun internet tarmog'idan foydalanish imkoniyati yaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tarixiy jarayonda ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy tamoyillarini belgiladi. Bu islohotlar natijasida ta'limda uzluksizlik va izchillik ta'minlanib, xalqimizning milliy qadriyatlari va zamonaviy bilimlar uyg'unlashdi[4]. Boshlang'ich ta'limda yangi pedagogik texnologiyalarning tatbiq etilishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ta'limning samaradorligini oshirish va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash tarixiy o'zgarishlardan biri sifatida baholanadi. Boshlang'ich ta'lim sohasida amalga oshirilgan tarixiy o'zgarishlar O'zbekiston ta'lim tizimining milliy modelini yaratishda muhim qadam bo'ldi. Bu o'zgarishlar nafaqat ta'lim mazmunini yangiladi, balki yosh avlodni jahon andozalariga mos qilib tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Natijalar va muhokama. Ko'plab maktablarda zamonaviy texnik jihozlar, kompyuter sinflari, internetga ulanish va boshqa texnologik infratuzilma yetarli emas. Bu esa yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishda to'sqinlik qilmoqda. Kadrlar tayyorlash va material-texnika bazasini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan mablag' yetishmovchiligi mavjud. Davlat byudjeti yoki boshqa moliyaviy manbalarni sarflash imkoniyatlari cheklangan bo'lishi mumkin. Mavjud texnik jihozlarning parvarishi, modernizatsiyasi va qo'llab-quvvatlanishi tizimi yetarli emas, bu esa ta'lim jarayonining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy dastur asosida boshlang'ich ta'lim tizimini zamonaviylashtirish jarayonida kadrlar tayyorlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash asosiy omillardan biridir. Ushbu jarayonda huquqiy, moliyaviy va pedagogik to'sqinliklarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv, zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, davlat va jamiyat hamkorligini rivojlantirish zarur. Bu orqali yuqori sifatli ta'lim tizimini yaratish va yosh avlodni kelajak talablariga moslab yetishtirish mumkin bo'ladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ta'lim sohasi mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ammo bu jarayon davomida ko‘plab muammolar yuzaga keldi va ularni hal qilish uchun hukumat tomonidan qator islohotlar amalga oshirildi.

Boshlang‘ich ta‘limning mazmunini tubdan yangilash va uning samaradorligini oshirish Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu dastur boshlang‘ich ta‘limning davlat ta‘lim standartlarini joriy etishni, o‘quv dasturlarini yangilashni va darsliklar sifatini yaxshilashni ko‘zda tutadi. Davlat ta‘lim standartlari joriy etildi, bu esa ta‘lim sifati bo‘yicha yagona talablarni belgilash imkonini berdi. Boshlang‘ich ta‘lim mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashga katta e‘tibor berila boshlandi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun interaktiv dars usullari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar joriy qilindi. Boshlang‘ich sinflarda chet tillar, axborot texnologiyalari va estetik tarbiya elementlarini joriy qilish boshladi.

Boshlang‘ich ta‘lim tizimini isloh qilishda moddiy-texnika bazasini rivojlantirish eng muhim omillardan biridir. Ammo ushbu yo‘nalishda hal qilinishi zarur bo‘lgan qator muammolar mavjud. Boshlang‘ich ta‘lim muassasalarining jihozlanish darajasi past bo‘lib, aksariyat maktablarda zamonaviy o‘quv jihozlari va kompyuterlar yetishmaydi. Darsliklar va o‘quv-metodik materiallarning sifati va mazmuni zamon talablariga javob bermaydi. Ko‘plab maktablarda darsliklar yaroqsiz holatda yoki eskirgan. Qishloq hududlaridagi boshlang‘ich maktablar uchun zamonaviy o‘quv vositalarini yetkazib berish tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish uchun texnologik baza yetarli darajada rivojlanmagan.

Boshlang‘ich ta‘lim tizimidagi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash — Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish va kelajak avlodning zamonaviy talablar asosida ta‘lim olishini ta‘minlashga qaratilgan. Shunga qaramay, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun davlat va xususiy sektorning hamkorligi, ilg‘or texnologiyalarni keng joriy qilish va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar talab qilinadi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta‘lim bolalarning umumiy ta‘limining birinchi bosqichidir. Boshlang‘ich ta‘limdagi bolalar atrof-muhit haqida asosiy bilimlarga ega bo‘ladilar, muloqot va amaliy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu bosqichda bolaning shaxsi shakllana boshlaydi va rivojlana boshlaydi, bu esa boshlang‘ich ta‘limning jamiyat va mamlakat uchun ahamiyati ifodasidir. Boshlang‘ich ta‘limning maqsadi bolalarda o‘qish, yozish va hisoblash odatlarini shakllantirish va mustahkamlashdan iborat. Bundan tashqari, bolalarga inson, jamiyat, tabiat va ular o‘rtasidagi qonuniyatlar to‘g‘risida dastlabki hayotiy bilimlarni berish, ularda mantiqiy va ijodiy tafakkur elementlarini shakllantirish, iste‘dod egalarining yoshlikdan kashf etilishi va kamol topishini ta‘minlash, sezgirlik, estetik, va badiiy did, axloqiy va ma‘naviy

fazilatlarni shakllantirish, jismoniy madaniyat va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida bo'lgani kabi, bizda ham boshlang'ich ta'lim majburiydir. Ko'proq xarakterli element sifatida ko'plab o'qituvchilar hali ham faqat o'quvchilar bilimiga qaratilgan o'qitish usullaridan foydalanadilar. Biroq, o'qitishning yangi ehtiyojlari o'qituvchilardan o'z faoliyatiga kompetentsiya bilan yondashishni talab qiladi, shunda o'quvchilar ertangi kunning munosib fuqarosi bo'lishadi. Bu kompetensiyalar bilim, ko'nikma, qadriyatlar, sifat va odatlar bo'lishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Жўраев Т. Мактаб таълимини ривожлантириш – умуммиллий вазифа // Маърифат, 2004, 28 июл.
2. Қодиров Г.Т. Умумий ўрта таълимга ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш асосида таълим-тарбия жараёнида самарадорликни ошириш // Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент: Имкон пресс, 2008. – Б. 11 – 12.
3. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги (бундан буён ЎзР ХТВ) 2006 – 2007 ўқув йили якунлари учун олиб борилган мониторинг натижалари ҳисоботи. 3215-фонд. 51-рўйхат, 32-иш, 42-47-варақлар.
4. ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви. Ўрта махсус касб-ҳунар таълим маркази ҳисобо-ти. 5249-фонд. 25-рўйхат, 33-иш, 40-варақ.
5. ЎзР ХТВ жорий архиви. Республика таълим маркази ҳисоботлари. 2621-фонд. 31-рўйхат, 34-иш, 26-варақ.